

BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirin Xajiyevna Shomurotova

Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
shomurotova70@mail.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishga oid tavsiyalar bayon qilingan. Mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyani qo'llab o'quv jarayonini tashkil qilish, uni o'tkazish, darsning samaradorligini va kutilayotgan natijalarning ham yuqori bo'lishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metodik tayyorgarlik, kompetentlik, kompetentsiya, o'zlashtirish darajasi, usul, kimyo fani, innovatsion texnologiya

Hozirda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2020 yildagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumiy ta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsad qilib qo'yildi. Zero, o'g'il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqur o'qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi. Shu bilan birga, umumiy ta'lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o'qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligini, o'qitish

metodologiyasi va laboratoriyalar ma'nan eskirganligini, o'qituvchilarning mehnatini munosib rag'batlantirish mexanizmlari joriy qilinmaganligini alohida qayd etish zarur.

Yu.A.Konarjevskiy, S.E.Shishkov, L.M. Abolin va E.S.Mixaylovalarning tadqiqotlarida kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning o'ziga xos tomonlari yoritilgan.

N.Muslimov o'z ilmiy izlanishlari doirasida ta'limiy tadqiqotlarga alohida urg'u berib o'tgan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kompetensiyaviy ta'limni tashkil etishda individuallashtirish va tabaqalashtirish asosida har bir talaba bilan alohida ishlab, iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarish kabi omillar muhim o'rin tutishining asosiy jihatlarini yoritib bergan. Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, kasbiy tayyorgarlik, imkoniyatlaridan foydalanish va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin.

Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, sub'ektning maqsadli vazifalarni mukammal bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Umumiy holda ta'riflaydigan bo'lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi ob'ektlar va sub'ektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

Kimyo o'qitish metodikasi va boshqa sohalar bo'yicha metodik bilimlarini chuqurlashtirish va yangilash, ularni amalda qo'llashga o'rgatish orqali bo'lajak kimyo o'qituvchilarni pedagogik kompetentlik faoliyatiga tayyorlash va jalb etish, ular faoliyatining sifat va samaradorligi hamda raqobatbardoshligini oshirib borishga imkon yaratdi.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan malakaviy talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va ko'nikmalarning faoliyat usullari majmuasini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot talablaridan kelib chiqib dolzarb muammolardan biri – bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini oliy ta'lim muassasalarida ilmiy



tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga ehtiyojlarini kuchaytirish hamda ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali shaxsiy-kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli etuk mutaxassislarni tayyorlashdir. Kompetentlik – o'qituvchining pedagogik faoliyatida shakllanadigan va takomillashadigan, yuqori kasbiy darajasiga etishiga yordam beradigan, o'z-o'zini boshqarish jarayonining intellektual, irodaviy va jismoniy jihatlari birligi bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.X.Shomurotova, Sh.B.Farmonova, N.I.Kamolova, S.A.Movlonova. Improving the Methodology of Teaching the role of metals in Biochemical Processes using Pedagogical Texnologies . Engineering a Management Test. Volume 83. May-June 2020. P:-26638-26645.
2. Iskandarov, A. Y., Shomurotova, S. X., & Kamolova, N. (2020). Forming a methodology for developing students' creativity using creative methods in teaching chemistry to future chemistry teachers. *International journal of discourse on innovation, integration and education*, 1(2), 1-5.
3. I. I. Sharibov, Sh. X.Shomurotova. Improving the methodology of teaching experiments on the elements of the copper group and its compounds. Internisional menejment injenereng, ISSN 2456 – 5083 Volume 10, 2021/6, pp. 216-218.
4. Xajievna, S. S. (2023). Kimyoni o'qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish. *Science and innovation*, 2(Special Issue 7), 114-117.
5. Shomurotova, S. (2023). KIMYO FANINI O'QITISHDA KREDIT MODUL ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH. *Science and innovation in the education system*, 2(1), 98-100.
6. Sh.X. Shomurotova, S.A. Movlonova, & M.R. Abdulloyeva. (2022). Oliy ta'lim muassasalarining fizik-kolloid kimyo kursida “Kolloid sistemalarning olish usullari. Maydalash va kondensatlash” mavzularini o'qitish metodikasi. *Conference Zone*, 81–82.
7. Formanova, S. B. (2021). Application of Pedagogical Technologies to the Topics of the Metals Department. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5499-5509.

8. Shomurotova, S. X. (2023). Kimyo fanidan masalalar yechish orqali o'quvchilarda bilish darajasini oshirish. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(17), 541-544.

9. Xismatova, X. (2024). Преподавание наук в цифровую эпоху: проблемы и решения. Modern Science and Research, 3(1), 1-3.

10. Saydaxmetova, S. R., & qizi Pardayeva, F. S. (2023). Kimyoviy elementlarning inson organizmidagi roli. golden brain, 1(31), 30-36.

